



**ETNOIQTISODIYOT – MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING XO‘JALIK  
TIZIMIGA TA’SIR KO’RSATUVCHI SEGMENTI**

**Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich**  
*t.f.b. falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*O‘zbekiston davlat jismoni tarbiya va sport universiteti*  
*E-mail: [new\\_rich80@mail.ru](mailto:new_rich80@mail.ru)*  
*Tel.: (+99897) 440-43-88*

**Annotatsiya:** Maqolada milliy iqtisodiyotning etniklik fenomeni va an’anaviy xo‘jalik yuritish usullariga asoslangan segmentini ifodalovchi xo‘jalik tizimi turi bo‘lgan etnoiqtisodiyot tushunchasi va xususiyatlari, uning o‘ziga xos belgilari, mohiyati va vazifalarini aniqlashga doir asosiy yondashuvlar tahlil qilingan. Etnoiqtisodiyot mintaqqa xo‘jaligining barcha sohalari, tarmoqlari va segmentlariga singib ketgan tizim va mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi sifatida qaraladi.

**Kalit so‘zlar:** etnoiqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot, etnos, etnik omil, an’analar, xo‘jalik yuritish tarzi, etnoiqtisodiy tizim, yondashuvlar.

**ETHNOECONOMICS IS A SEGMENT OF THE REGIONAL ECONOMY  
AFFECTING THE ECONOMIC SYSTEM**

**Abstract:** The article analyzes the concept and features of this type of economic system as ethno-economics, which is a segment of the national economy based on the phenomenon of ethnicity and traditional methods of farming, its characteristic features and characteristics, the main approaches to determining the essence of ethno-economics, its features and functions. Ethnoeconomics is viewed as a system that permeates all areas, sectors and segments of the regional economy, and as the basis for the socio-economic development of the region.

**Key words:** ethnoeconomics, regional economy, ethnics, ethnic factor, traditions, economic structure, ethnoeconomic system, approaches.

**KIRISH.** Cheklangan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitda mintaqalar darajasida iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘llarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, etnoiqtisodiy tizimlarning rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy farovonligiga, aholi bandligini oshirishga va umuman hayot sifatini yaxshilashga hissa qo‘sishi mumkin. Bunday yondashuv zamirida an’anaviy xo‘jalik tizimlarining zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslasha oladigan va mintaqaviy salohiyatni to‘laroq ochib bera oladigan

yuqori hayotiyligi haqidagi tasavvur yotadi. Mazkur yondashuv tarafdarlari etnoslar xo‘jalik yuritishining o‘ziga xosligi va betakrorligini uning eng yaxshi ko‘rinishlarida e’tirof etadilar. So‘nggi paytlarda tegishli etnosning geografik, tarixiy, diniy, madaniy, psixologik omillari va yashash sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan milliy iqtisodiyot muammolarini o‘rganish tobora ko‘proq qiziqish uyg‘otmoqda, bu esa yangi ilmiy yo‘nalish – etnoiqtisodiyotning paydo bo‘lishiga olib keldi.

*Etnoiqtisodiyot* – mintaqaviy xo‘jalik tizimi doirasida avtoxton etnosning an’anaviy xo‘jalik yuritish tarzi ta’sirida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o‘rganuvchi iqtisodiy fan tarmog‘i [17, 54]. Turli fanlar tomonidan insoniyat hayot faoliyatining turli sohalarida etnomadaniy omillarning roli aniqlanganiga qaramay, “etnoiqtisodiyot” atamasi faqat XX asrning 80-yillarda ilmiy muomalaga kira boshladi. Bugun, XXI asrda, etnoiqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish, bir tomonidan, mahalliy, shu jumladan, kam sonli xalqlar hayotining ijtimoiy-iqtisodiy muhitini saqlab qolish zarurati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomonidan, muayyan mintaqada, shu jumladan, “mahalliy iqtisodiyot” hisobidan “o‘sish nuqtalari”ni topish bilan bog‘liq. Shuning uchun etnoiqtisodiyotga qiziqish tasodifiy emas, balki qonuniydir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Yevropa xalqlari xo‘jalik yuritishining etnik xususiyatlari A. Smit tomonidan qayd etilgan bo‘lsa, M. Veber, X. Shrayder, V. Zombartlar tomonidan iqtisodiy sotsiologiya va antropologiya masalalari tadqiq etilgan. Etnoiqtisodiyotning mohiyatini ko‘rib chiqishda shartli ravishda bir nechta yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) etnoiqtisodiyot – natural xo‘jalik, mayda tovar ishlab chiqarish, an’anaviy xo‘jalik yuritish tarzi bilan belgilanadigan mintaqqa iqtisodiyotining segmenti (Ovchinnikov V.N., Kolesnikov Yu.S., Axmetov V.Ya., Berdnikova G.I., Kornekova S.Yu. va boshqalar) [6; 2; 11]. Bu toraytirilgan ta’rifdir. Bunday yondashuv O.V. Inshakov tomonidan tanqid qilinib, “etnoiqtisodiyot mintaqaviy iqtisodiyotning alohida sektori yoki segmenti emas, u uning barcha sohalari, sektorlari va segmentlariga kirib boradi”, deb hisoblaydi [6, 11];

2) etnoiqtisodiyotning jamiyat taraqqiyotidagi etnik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish sifatida yanada kengaytirilgan ta’rifi. Bunday holda, etnoiqtisodiyot o‘zgarishlarga qodir bo‘lgan tizim sifatida qaraladi (S.P. Makarov, A. Andreev va boshqalar) va shu bilan mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun sharoit yaratadi (etnoanalarni saqlab qolishdan voz kechmagan holda) [13; 1].

Lebedev N.N., Lomovseva O.A. esa etnoiqtisodiyotning muhim sharti (bu asosiy shart deb hisoblaymiz) “etnos joylashgan cheklangan jismoniy makon”, deb hisoblashadi [12, 110].

Etnoiqtisodiyotning mohiyati haqida fikr yuritgan barcha mualliflarni birlashtiradigan umumiyl jihat uning quyidagi xususiyatlari ro‘yxatidir: qo‘l mehnati ustun bo‘lgan natural va (yoki) mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllarining saqlanib qolishi; ekzogen omillarga nisbatan endogen omillar ta’sirining ustunligi; etnik institutlarning barqarorligi (an’anaviy foydalanishdagi yerkarta jamoaviy mulkchilik va

boshqalar); past ijtimoiy-hududiy harakatchanlik, asosan mahalliy resurslardan foydalanish; barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq barcha an’analarning etnik kelib chiqishi.

Ko‘rsatilgan xususiyatlar etnoiqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga ma’lum bir tuzatish bilan yaratilgan ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilishni amalga oshiriladigan ma’lum bir tizim sifatida ifodalaydi. Bu xususiyatlar “o‘zaro kuchayish sirtmoqlari” [25, 181-190], ya’ni ularning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir yoki bir nechta xususiyatlarning kuchayishi boshqalarga ta’sir ko‘rsatadi.

**NATIJALAR.** Mintaqaning etnoiqtisodiy tuzilishi aholining milliy tarkibi, tabiiy-xomashyo va rekreatsion-iqlim sharoitlari, mamlakatdagi geosiyosiy vaziyat bilan belgilanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlardan tashqari, etnoiqtisodiyot har qanday polietnik mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tutgan o‘rnini ko‘rsatadigan bir qator o‘ziga xos vazifalarni bajaradi [2, 33]:

1. *Barqarorlashtiruvchi* funksiya: asosan mahalliy tabiiy xomashyodan foydalanishni hisobga olgan holda “mahalliy iqtisodiyot” “o‘z” mintaqasining asosi bo‘lib, bu bandlikni ta’minlash, ma’lum daromad olish va shu bilan etnik aholining o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

2. *Amortizatsiyalovchi* funksiya: inqiroz va boshqa destruktiv hodisalarining mintaqaga iqtisodiyotiga halokatli ta’sirini yumshatadi.

3. *Ijtimoiy-iqtisodiy* funksiya: etnoiqtisodiyot iqtisodiyotning boshqa sohalaridan bo‘sagan mehnat resurslarini o‘zlashtirib, aholini ish bilan ta’minlash sohasidagi keskinlikni yumshatishga yordam beradi.

4. Etnoslarning an’ana va urf-odatlarini saqlab qolish funksiyasi [16].

Mazkur funksiyalar etnoiqtisodiyotning bosh maqsadi – takror ishlab chiqarish, ya’ni an’anaviy etnoiqtisodiy hodisalar (harakatlar) ning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlanishini amalga oshirish imkonini beradi (agar etnoiqtisodiyotni *mikro*, *mezo* va *makro* darajalarda ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, uning takror ishlab chiqarish xususiyatlarda farqlar kuzatiladi).

Bunga etnos chegaralarida takrorlanadigan deskriptiv (dastlabki) aloqalar yordam beradi, ammo bu chegaralar alohida mintaqaga nisbatan shartli bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar etnos ko‘chib yursa, demak, etnoiqtisodiyot ham “ko‘chib yuradi” (masalan, lo‘lilar va ularning etnik aloqalari ko‘pincha ma’lum bir hudud bilan bog‘liq emas). Mintaqaviy iqtisodiyotni etnoiqtisodiyotga nisbatan ko‘proq “statsionar” tizim sifatida qaralganda ham, ma’muriy chegaralar haqiqatda iqtisodiy chegaralarga mos kelmaydi va bu hodisa “umumiyl bozor mintaqaviyligi” deb ataladi [15, 10].

**MUHOKAMA.** Tadqiqotchilar o‘rtasida etnoiqtisodiyotning chegaralarini belgilash va faoliyat turlarini aniqlashda yakdillik yo‘q. Birinchidan, etnoiqtisodiy segmentga faqat an’anaviy xo‘jalik yuritish shakllari, ko‘pincha hududning avtoxton aholisi kiritilishi mumkin [8; 16; 21]. Ikkinchidan, an’anaviy xo‘jalik yuritish u yoki bu tarzda an’anaviy sektorga tayanadigan mutlaqo zamonaviy iqtisodiy faoliyat turlari bilan to‘ldirilishi mumkin [7; 10; 23].

Uchinchidan, etnoiqtisodiyot etnik madaniyat ta’siri bilan bog‘liq xususiyatlar majmui sifatida butun mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qamrab olishi mumkin [12; 20]. To‘rtinchidan, etnoiqtisodiyot o‘ziga xos “etnik” mehnat taqsimoti sifatida namoyon bo‘lib, uning ko‘rinishi ayrim ozchiliklarning ba’zi kasblar yoki iqtisodiyot tarmoqlarida to‘planishi yoki alohida korxona (etnik tadbirkorlik) doirasida o‘ziga xos etnik an’analarning ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi [3; 14]. Beshinchidan, etnoiqtisodiyot boshqa tashqi muhitni o‘zlashtirayotgan migrantlar (etnik ozchiliklar) ning ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvi shakli yoki o‘z xalqining asosiy yashash hududidan tashqarida uzoq vaqt yashovchi etnik diasporalarning iqtisodiy faoliyati sifatida qaraladi [19; 22]. Ba’zan etnoiqtisodiyot deganda etnik diasporalarning jinoiy tusga ega bo‘lgan iqtisodiy faolligi ham tushuniladi [24].

Ilmiy adabiyotlarda “etnoiqtisodiyot” kategoriyasini ta’riflashda ikkita yondashuv shakllangan: etnos tomonidan xo‘jalik yuritish turlari, shakllari va usullarining meros qilib olinishi bilan bog‘liq *an’naviy* va global takror ishlab chiqarish jarayonlariga qo‘shilish sharoitida etnoiqtisodiyotning moslashuvchanlik qobiliyatları bilan bog‘liq *neoan’naviy* (moslashuvchan) [5; 7; 18]. Etnoiqtisodiyotni tegishli etnik jamoalarda rivojlangan va ushbu hududdagi aholining an’naviy turmush tarzi, xo‘jalik yo‘nalishi, oilaviy turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan an’naviy mehnat faoliyati sifatida talqin qilish eng keng tarqalgan [8].

Etnoiqtisodiyotning an’naviy sektorida ma’lum bir hududda yashovchi etnik guruhlarning an’analari, tajribalari, urf-odatlari ushbu hududda lokalizatsiya qilingan ishlab chiqarish resurslaridan amaliy foydalanishni belgilaydi. An’naviy sektor quyidagilarni o‘z ichiga oladi: qishloq xo‘jaligi, an’naviy tabiatdan foydalanish, xalq hunarmandchiligi. U etnoiqtisodiyotning yadrosi bo‘lib, mintaqaning bir qator tarmoqlarining tuzilishi va rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

An’naviy sektorning iqtisodiy faoliyat turlari uchun quyidagi tipologik xususiyatlar xosdir [9; 23]:

- tovar yo‘nalishiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish faoliyatining uy xo‘jaligini yuritish bilan uзви bog‘liqligi;
- asosan mahalliy yashash muhitiga xos bo‘lgan ko‘chmas xomashyo resurslaridan foydalanish;
- asosan amaliyotga yo‘naltirilgan xo‘jalik-mehnat tajribasi;
- ayrboshlashning kam rivojlanganligi, resurslar va xizmatlar ayrboshlashning asosan norasmiy xarakteri;
- norasmiy institatlarning ustunligi;
- bandlikning ekstensiv turi, qo‘l mehnati, kasanachilik, oilaviy mehnatning ustunligi.

Etnoiqtisodiyotning neoan’naviy sektorining tuzilishi va shakllari turli mualliflar nuqtai nazaridan sezilarli darajada farq qilmaydi [18]. Ko‘pincha neoan’naviy faoliyatga an’naviy sektor mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishslash, etno va tarixiy-madaniy turizm, o‘rmonlarni qayta tiklash, ov va baliqchilik faoliyati va boshqalar kiradi. Etnoiqtisodiyotning neoan’naviy

sektori iqtisodiy faoliyat turlarini shartli ravishda ikki guruhga – *industrial* va *postindustrial* (bozor-transaksion) tarkibiy qismlarga birlashtirish mumkin.

Etnoijtisodiyot segmentining mintaqaviy xo‘jalikka ta’siri bir xil emas. Bir tomondan, an’anaviy sektorning ma’lum hududlarda ustunlik qilishi mintaqqa iqtisodiy makonining yaxlitligini buzadi va uning muvozanatli rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi. Bu soha yangiliklarni kam qabul qiladi, o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatadi, asosiy tipologik belgilarini saqlagan holda tashqi ta’sirlarga oson moslashadi. Etnoijtisodiyotning an’anaviy sektorining bunday xususiyatlari mintaqaviy iqtisodiy siyosat maqsadlariga erishishni murakkablashtiradi: hududni boshqarish murakkablashadi, rivojlanishni prognozlash va rejalashtirish, maqsadli dasturlar va loyihalarni amalga oshirish qiyinlashadi.

Shu bilan birga, bir qator tadqiqotchilar an’anaviy etnoijtisodiyotning mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ba’zi ijobjiy ta’sirlarini qayd etadilar. Masalan, ushbu sektor asosiy “o’sish nuqtalari”dan uzoqda bo‘lgan sharoitda inson kapitalidan samarali foydalanishni ta’minlaydi, mintaqqa iqtisodiyotiga siklik inqirozli-destruktiv hodisalarining halokatli ta’sirini yumshatadi, kichik biznesni rivojlantirish manbai hisoblanadi va boshqalar [5; 14; 16].

Ayniqsa, qishloq hududlari uchun etnoijtisodiyotning an’anaviy sektori ahamiyatlidir. Bu yerda uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: aholini oziq-ovqat bilan o‘zini o‘zi ta’minalash (ayniqsa, aholisi kam va kam rivojlangan hududlarda yashovchi); ma’muriy markazlardan va iqtisodiy rivojlangan hududlardan uzoqda joylashgan qishloq aholi punktlarida bandlik va o‘zini o‘zi band qilishni oshirish; qishloq aholisining daromadlarini oshirish; etnik madaniyat va an’anaviy turmush tarzini saqlab qolish; oziqlantiruvchi landshaftning biologik xilma-xilligi va mahsuldarligini saqlab qolish [17].

Ekstensivlik, agrar-kasanachilik yo‘nalishi, uy xo‘jaligi doirasidagi yopiqlik va mehnatni norasmiy tartibga solish tufayli etnoijtisodiyotning an’anaviy sektori mahsulotlarining raqobatbardoshligi past. Shunga qaramay, etnoijtisodiyotning ba’zi tovarlari o‘ziga xos bo‘lib, sohaning raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirish uchun asos bo‘lishi mumkin (yovvoyi o‘simliklarni yig‘ish, sayyoohlар uchun esdalik sovg‘alari tayyorlash, ovchilik, folklor jamoalari uchun musiqa asboblarini ishlab chiqarish va boshqalar).

Etnoijtisodiyotning neoan’anaviy sektori ham bir qator foydali vazifalarni bajaradi. U mintaqqa iqtisodiyotiga qo‘shimcha barqarorlik beradi, uning ijobjiy-ilg‘or dinamikasini oshiradi, ijobjiy tarkibiy siljishlarni keltirib chiqaradi, umuman hududning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, mintaqaviy takror ishlab chiqarishning turli tarkibiy qismlarini birlashtirish katalizatori bo‘lib xizmat qiladi.

Poliетnik mintaqalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynashiga qaramay, etnoijtisodiyot segmenti mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda hisobga olinishidan ko‘ra ko‘proq e’tibordan chetda qoladi. Sababi juda oddiy etnoijtisodiyot statistika va soliq organlari tomonidan deyarli kuzatilmaydi. An’anaviy sektorni ishlab chiqarishning natural va mayda tovar shakllarining katta hajmi, asosan kasanachilikdan foydalanish, norasmiy institutlarning ustunligi tufayli aniqlash qiyin [17].

Neoan’anaviy sektorni ham mintaqa iqtisodiyotidan ajratib olish qiyin, ammo boshqa sababga ko‘ra. An’anaviy texnologiyalar bo‘yicha tayyorlangan yoki etnik uslubda bajarilgan assortment qatoridagi alohida mahsulot, turistik mahsulot tarkibidagi etnomadaniy ekskursiyalar, o‘rmonchilik, baliqchilik va shu kabilarda an’anaviy bilimlardan foydalanish – bularning barchasi mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi, tovar pozitsiyasini ta’minlaydi, uning sotilishini ko‘paytiradi, ammo mintaqa miqyosida miqdoriy jihatdan baholash qiyin.

Etnoijtisodiyot turli etnoslarning an’analari, urf-odatlari, madaniyati, psixologiyasi, mafkurasi, diniy qarashlarining o‘zaro ta’siri hamda ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi haqidagi fan sifatida ham ta’riflanadi. Etnoijtisodiyot murakkab, ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, unda uchta darajani ajratish mumkin: *makro-* (etnik jihatdan bir xil mamlakatlar iqtisodiyoti), *mezo-* (mintaqalar, o‘lkalar, viloyatlar iqtisodiyoti) va *mikro-* (alohida ishlab chiqarish birliklari iqtisodiyoti) [4].

Etnoijtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik yuritishning an’anaviy, asosan agrar shakllarining hukmronligi;
- ishlab chiqarishning natural va mayda tovar shakllarining uyg‘unlashuvi, uy xo‘jaliklarining yopiqligi;
- ko‘chmas resurslardan, ya’ni yashash muhitining mahalliy hududiy resurslaridan foydalanish;
- avloddan avlodga o‘tib kelayotgan empirik xo‘jalik-mehnat tajribasining ustunligi, hunarmandchilik va kasanachilikdan foydalanish;
- resurslar va xizmatlar almashinuvining norasmiy xarakteri;
- xomashyo xo‘jaligi infratuzilmasidan foydalanish va qo‘l mehnatining ustunligi bilan bandlikning ekstensiv turi;
- mehnat bozorini asosan norasmiy institutlar tomonidan tartibga solish;
- aholining past ijtimoiy va fazoviy harakatchanligi [23].

Zamonaviy sharoitda etnoijtisodiyot o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo‘lgan uyg‘un, barqaror, moslashuvchan model sifatida qaraladi. Etnoijtisodiyot rivojlanishining uchta asosiy yo‘nalishi ajratib ko‘rsatiladi: *bozor-etnik* (etnoturizm), *industrial-etnik* (qishloq xo‘jaligi xomashyosini sanoat usulida qayta ishslash), *an’anaviy-etnik* (qishloq xo‘jaligi, xalq hunarmandchilik va kosibchilik).

Etnoijtisodiy jarayonlarni mintaqaviy darajada o‘rganishda, bizning fikrimizcha, quyidagi qoidalarga tayanish lozim:

1) etnodemografik va iqtisodiy jarayonlar o‘rtasida murakkab o‘zaro bog‘liqlik (qo‘shimchalik) mavjudligi; 2) etnoijtisodiy mexanizmlar asosan nobozor xarakterga ega – etnoijtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida an’analar, norasmiy qoidalalar, stereotiplar, xatti-harakatlar doirasi institutlari muhim rol o‘ynaydi; 3) etnoijtisodiy ko‘rinishlar xilma-xil, ko‘pincha turli yo‘nalishdagi dinamikasi bilan ajralib turadi, ularning tur tarkibi esa nihoyatda xilma-xildir.

Iqtisodiy jarayonlar insonning ijodiy, kommunikativ, innovatsion va joriy etish faoliyati orqali boyib va o‘zgarib, natijada an’anaviy va yangi sifatdagi iqtisodiy faoliyatning ajralmas simbiozi va madaniy-ma’naviy qadriyatlarning ko‘payishi bilan ajralib turadigan etnoiqtisodiyot hodisasini yaratadi. Zamonaviy bosqichda “inson - hudud – iqtisodiyot” tizimida o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlari ko‘p jihatdan “inson” komponentlari quyi tizimida yotadi va nafaqat aholining ta’lim olishi, balki etnomadaniy merosni saqlash, rivojlantirish va ijodiy qo‘llash jarayonlari bilan bog‘liq hamdir.

**XULOSA.** Globallashuv sharoitida, ijtimoiy hayotning deyarli barcha jabhalari unifikatsiya va standartlashtirishga duchor bo‘layotgan bir paytda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy omili va ayniqsa, ishlab chiqarish va iste’mol etnik xususiyatlarining ahamiyati hech qachon zaiflashmaydi. Shakllanayotgan global iqtisodiy, axborot, geosiyosiy makonlar jahon taraqqiyotining integratsiyaga moslashuvchi yoki unga qarama-qarshi turuvchi etnik fragmentatsiyasiga duch kelmoqda. Etnik an’analar inson faoliyatining deyarli barcha turlarida innovatsion turkiklarni shakllantirish uchun katalizator vazifasini bajarishi yoki infratuzilmani shakllantirishi mumkin.

Inqirozli davrlarda mintaqqa etnoiqtisodiyoti hudud iqtisodiyotining chuqur tashuvchi asosi vazifasini bajaradi, eng yuqori salbiy hodisalarning amortizatori bo‘lib xizmat qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtiradi. Barqaror davrlarda mintaqqa etnoiqtisodiyoti etnoslar uchun an’anaviy bo‘lgan xo‘jalik yuritish turlarini saqlab qoladi, etnosni birlashtiradi, inson kapitalini qo‘llash va rivojlantirishga yordam beradi, qo‘srimcha ijtimoiy-iqtisodiy ustunliklar va pozitsiyalarni yaratadi, mintaqaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shuningdek, iqtisodiy agentlarni ijodiy faoliyatga va noiqtisodiy harakatlarga o‘tkazish imkoniyatlarini ta’minlab, etnosning iqtisodiy bazasini mustahkamlaydi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Андреев А. Этническая революция и реконструкция постсоветского пространства // Общественные науки и современность. 1996. 1.
2. Ахметов В.Я., Бердникова Г.И. Этноэкономика и ее роль в устойчивом развитии регионов // «Устойчивое развитие территорий: теория и практика»: материалы Всероссийской научнопрактической конференции (12 ноября 2009 г.). Уфа: Гилем, 2009. – С. 32-37.
3. Бредникова О., Паченков О. Этничность «этнической экономики» и социальные сети мигрантов // Экономическая социология. 2002. Т. 3. 2. – С. 74-82.
4. Визер Т.В. Экономика. Этнос. Культура // Региональная экономика и управление: электр. науч. журн. / ВятГУ, МЦНИП – Киров: Международный центр научно-исследовательских проектов. 2008. 3. рег. статьи 0052 (URL: <http://region.mcnip.ru>).

5. Иншаков О. Этноэкономика Юга России: стратегические перспективы в координатах модернизации // Проблемы теории и практики управления. 2008. 4. – С. 8–20.
6. Иншаков О.В., Ломовцева О.А., Буянова М.Э. Этноэкономические риски развития Юга России // Региональная экономика: теория и практика. 2007. 10.
7. Канцеров Р.А. Этноэкономический сектор КЧР //Этноэкономика в модернизационной парадигме развития национального хозяйства. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского гос. ун-та, 2004. – С. 42.
8. Киселева Н.Н. Этноэкономическая составляющая системной организации юга России // Фундаментальные исследования. 2007. 11. – С. 91-93.
9. Колесников Ю. С. Этноэкономика в судьбах модернизации Юга России // Экономический вестник Ростовского государственного университета. 2003. № 2.
10. Колесников Ю.С. Многоукладность национального хозяйства этноэкономики и процессы ее модернизации // Этноэкономика Юга России: концепции, параметры, механизмы: Матер. всерос. науч. конф. – Домбай, 2005. – С. 37.
11. Корнекова С.Ю., Басиров М.В. Этноэкономика республик Северного Кавказа как фактор развития сферы услуг // «Дискуссия» полемический журнал научных публикаций. 2014. № 3(44). URL: journal-discussion.ru/..
12. Лебедев Н.Н., Ломовцева О.А. Социальный капитал и модернизации юга России // Общественные науки и современность. 2006. № 2. – С. 109-117.
13. Макаров С. П. Российское хозяйство через призму этноэкономики // Философия хозяйства: альманах Центра общественных наук и экономического факультета МГУ им. М.В. Ломоносова. 2006. 6.
14. Mobasher M. Ethnic Economies by Ivan Light and Steven Gold, Academic Press (2000) // Journal of Political Ecology: Case Studies in History and Society 2002. 9 (URL:<http://jpe.library.arizona.edu/>)
15. Новоселов А.С. Теория региональных рынков: Учебник. Ростов н/Д.: Феникс; Новосибирск: Сибирское соглашение, 2002.
16. Овчинников В.Н., Колесников Ю.С. Этноэкономика как фактор развития // Проблемы прогнозирования. 2006. 1. – С. 118-123.
17. Паникова С.В., Власов М.С., Чебодаев В.П. Институты развития этноэкономики // Проблемы современной экономики. 2011. – С. 53-57.
18. Печура О.В. Этноэкономика региона: теоретико-методологический аспект // Вестник Челябинского государственного университета. 2010. 3. Экономика. Вып. 24. – С. 56-60.
19. Рязанцев С. В. Этническое предпринимательство как форма адаптации мигрантов // Общественные науки и современность. 2000. 5. – С. 73-86.
20. Сурнина Н.М., Печура О.В. Этноэкономическая парадигма в контексте теории диалога цивилизаций // Вестник Томского гос. ун-та: Экономика. 2009. 4. – С. 5-12.

21. Тамбиев А.Х. Регион в системе национальной экономики: экономические модели и механизмы регулирования: дисс. д-ра экон. наук. – Ростов-на-Дону, 2000.
22. Тощенко Ж. Этнический национализм // Общество и экономика. 2002. 1. – С. 114-133.
23. Узденова Л.Х. Типологические признаки отнесения традиционных видов деятельности населения к сфере этноэкономики. МИТС – НАУКА. (URL: [www.roseis.ru](http://www.roseis.ru)).
24. Horowitz D. Ethnic Groups in Conflict. – Berkley: University of California Press, 1985.
25. Феликс Янсен. Эпоха инноваций: Пер. с англ. М.: Инфра-М, 2002. XII, 308 с. (Серия «менеджмент для лидера»).